



2019 yilning yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

O`zbekistonda qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining
jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotining ahamiyatli
tarmog`i hisoblanadi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida
jami 1 272,8 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`sish
sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 106,7 %ni tashkil
etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari
tomonidan 393,4 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami
qurilish ishlari hajmidagi ulushi 30,9 %ni, hamda o`tgan
yilning mos davriga nisbatan 106,6 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish
ishlari qurilish ishlari hajmining 46,4 %i yoki 591,2 mlrd.so`m
to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 113,8 %
ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 22,7 % yoki
288,2 mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos
davriga nisbatan 94,3 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi
- 30,9 %

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
- 46,4 %

Norasmiy sektor
ulushi
– 22,7%



Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi – **393,4 mlrd.so`m**
- o`sish surati - **106,6 %**


Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi – **591,2 mlrd.so`m**
- o`sish surati - **113,8 %**

Norasmiy sektor

- hajmi – **288,2 mlrd.so`m**
- o`sish surati – **94,3 %**

Yanvar-fevral oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 61,7 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan

3,4 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 22,6 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 15,7 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

**Yanvar -fevral oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan %da)**



2019 y.

- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2018 y.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 23,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan

0,3 % punktga kamaydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 40,0 % (1,6 % puktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 36,7 %ni (1,3 % punktga kamayish) tashkil etdi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 74,8 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 25,2 % (7,0 % punktga ko'payish) ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish

ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga kamaydi va 9,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 90,4 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko'paydi.

Korxona turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi (jamiga nisbatan %da)




■ Yirik pudrat tashkilotlari ■ Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlaringin katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 46,4% tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga ko`paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, jami qurilish ishlaridagi ulushi 32,8 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlaringin 22,6 %i

to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.




**Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi
(jamiga nisbatan %da)**

2018 yil



2019 yil



- Davlat mulki
- Fuqarolar xususiy mulki
- Qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulki
- Boshqa mulkchilik shakllari



Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 71,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 66,4 foizni (2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan 0,8 % punktga kamayish) tashkil qildi.

hajmidagi ulushi 5,6 foizni tashkil qildi ya'ni 2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan 1,9 % punktga ko`paydi.


Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 1 200,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 66,4 foizni (2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan 0,8 % punktga kamayish) tashkil qildi.

Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Shayhontoxur (tumandagi qurilish hajmining 86,2%ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 % punktga qurilish ishlari ko`p bajarilgan) va Mirobod (mos ravishda, 84,6 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,1 % punktga qurilish ishlari ko`p bajarilgan) tumanlari yetakchilik

qilmoqda.




Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng kam ulushi Sirg`ali tumanida kuzatildi – 0,1 %. Bu tumandagi qurilish ishlaring

asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to`g`ri keladi – tumandagi jami qurilish ishlaring 99,9 %.

Tuman kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



Qurilish ishlaringin hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Chilonzor tumanida kuzatilgan bo`lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish

ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlaringin 98,7 %ini tashkil qiladi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so`m	O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent shahar	1272,8	106,7
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	32,0	104,8
Mirzo Ulug'bek	182,0	107,7
Mirobod	230,4	107,3
Olmazor	86,6	106,6
Sirg`ali	79,2	104,8
Uchtepa	54,7	103,5
Chilonzor	169,4	108,9
Shayxontoxur	107,2	108,1
Yunusobod	117,2	103,8
Yakkasaroy	111,5	106,6
Yashnobod	102,6	106,2

Toshkent shahrining yuqori o'sish sur'atga – 106,7 % ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sirg’ali” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Ko`ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navruz” istirohat bog`ining qurilishi;

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

B. Shoimqulov
(0371) 230-88-18